

7 – TOM 3 – SON / 2024 - YIL / 15 - MART

**PEDAGOGIKA OLIY TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYA VOSITASIDA
TALABALARING IJODIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH
METODIKASI (MUSIQA TA'LIMI MISOLIDA)**

Umarova A.I.

Musiqa ta'lumi kafedrasini o'qituvchisi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hozirgi paytda eng dolzarb masalalardan biri hisoblangan raqamli ta'lum texnologiyalarining o'quv jarayoniga joriy etish istiqbollari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha pedagogning kasbiy mahorati, zamonaviy axborot texnologiya vositalaridan foydalanishning asosiy pedagogik maqsadlarini bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lum texnologiyasi, axborot texnologiyalari, kompyuter texnologiyasi, texnologik innovatsiya.*

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviyaxloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzlucksiz ta'lum tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashni nazarda tutgan holda, oliy ta'lum muassasalarining asosiy vazifalari sifatida, talabalarning fanlar asoslari bo'yicha mustahkam bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ularda bilim olish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish kabi yo'nalishlarni belgilab berdi.

Umumi o'rta ta'linda o'rgatilayotgan har bir fanning maqsad va vazifalari belgilab qo'yilgan. Asosan amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan musiqa madaniyati fanining ham o'z maqsad, vazifalari bo'lib, umumta'lum mакtablarida musiqa madaniyati fanini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini, milliy g'urur hamda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, tafakkurini kengaytirish, bolalardagi ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirish hamda tashabbuskorlikni tarbiyalashdan iboratdir. O'qituvchining kasbiy jihatdan shakllanishi oliy ta'linda kasbiy ta'lum olish jarayonidan boshlanadi. Pedagogika oliy dargohlarining fan dasturlari mazmuni bo'lajak o'qituvchilarga kasb bo'yicha bilimlar berish, pedagog faoliyat sirlarini o'rgatish va talabalarda ko'nikma hosil qilishga qaratilgan. Mahorat – bu "ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan shaxsning shaxsiy xususiyatlari kombinatsiyasidir". Pedagogik mahorat tushunchasiga esa hozirgi zamon psixologiya va pedagogikasida turlicha ta'rif beriladi. "Pedagogik mahoratga ega mutaxassis bu – o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur

biladigan, yondosh fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassisidir.

Pedagogik mahorat tushunchasi quyidagicha izohlanadi:

- Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlikning yuqori ko'rsatkichi;
- O'z faniga doir mukammal bilimlar sohibi;
- Pedagogika va psixologiya oid bilimlarni ham puxta o'zlashtirib, o'z kasbiy faoliyatida ularni ishlata oladigan shaxs;
- O'quv va tarbiyaviy ishlar uslubiyatini mukammal biladigan pedagog.

Musiqa o'qituvchisining pedagogik mahorati turli ko'nikmalarga egalik bilan yanada oshib boradi. Ya'ni musiqa o'qituvchida shakllanishi zarur bo'lgan quyidagi ko'nikmalarni tavsiflash orqali uning shakllanish jarayonini, pedagogik mahoratga erishish bosqichlarini yanada teranroq anglaymiz:

Birinchidan, u professional tarzdagi tashkiliy qobiliyatlar: pedagog sifatida har doim o'zini tahlil etib borish, bolalar faoliyati ustidan tezkor nazoratni ta'minlash, bolalarning pedagogik ta'sirga bo'lgan munosabatini hisobga olgan holda, o'z vaqtida o'quvchini yo'naltirish va berilgan pedagogik vazifalarni to'g'rilashni oqilona amalga oshirish, belgilangan vazifalarga erishish uchun ko'rsatmalarni bajarish, bolalar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, bolalarning muvaffaqiyatlari va yutuqlarini hisobga olgan holda faoliyatni rag'batlantirish, dars, o'zlashtirishdagi talablarning eng optimal shaklini topish va ularni bolalarning individual xususiyatlariga va muayyan pedagogik sharoitlarga qarab o'zgartirish, vazifalarni aniq, qisqa va oson tushuntirish kabilar.

Ikkinchidan, tahliliy qibiliyatlar: olingan natijalarni dastlabki ma'lumotlar va qo'yilgan pedagogik vazifalar bilan solishtirganda tahlil qilish, musiqiy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarning mohiyatini tahlil qilish, erishilgan natijalarni tahlil qilish asosida o'z tajribasini pedagogik nazariya bilan bog'lash, pedagogik vazifalarni ilgari surish va asoslash. Pedagog "o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lish"i zarur

Uchinchidan, muloqot qibiliyatları: musiqa o'qituvchisi bolalar va ularning otaonalari bilan munosabatlar o'rnatadi, bolalarni axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalaydi, har bir bolaga individual yondashishni ta'minlaydi. Zero, musiqiy va tarbiyaviy faoliyatning asosi muloqotdir. Bolalar bilan muloqot qilish qobiliyatı ularga muhabbatsiz rivojlanmaydi. Jamoadagi munosabatlar ko'p jihatdan tarbiya, ta'lím va o'qitishdagi muvaffaqiyatni belgilaydi. Bu o'qituvchining muloqot qobiliyatining mazmuni va ahamiyatini belgilaydi.

To'rtinchidan, loyihalash qibiliyatları: pedagogik faoliyat natijalarini loyihalash qobiliyati, ularni amalga oshirish yo'llarini rejalashtirish, har bir bolaning va guruhning musiqa fanini o'zlashtirishini loyihalash, tarbiya va ta'lím natijalarini, bolalarni musiqiy tarbiyalash va o'qitishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni oldindan ko'ra bilish, aniq vazifalarni ajratib ko'rsatish va shakllantirish.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlaymizki, bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik faoliyati - bu maxsus bilim, ko'nikma va malakalar, tashkilotchilik qobiliyatiga egalik, kasbiy tayyorgarlikning yuqori darjasи, kasbda o'zo'zini anglash, doimiy o'z-o'zini takomillashtirish, muloqot qilish va har bir bolaga to'g'ri yondashuvni topish qobiliyatlarini namoyon qilishdir. Bu uning ijodiga bo'lgan ulkan qiziqish, o'z oldida turgan vazifasini tushunish, san'atdagi o'rni, yuksak shaxsiy madaniyati va kasbiy ishtiyoqi orqali yo'lga qo'yildigan pedagog sifatidagi kelajagi hisoblanadi. Biz pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlarini o'rganar ekanmiz, yuqoridagi barcha komponentlar musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga to'liq taalluqli ekanligiga amin bo'lamiz. Musiqa o'qituvchisida pedagogik mahoratni shakllantirish shaxs madaniyatiga, o'sib borayotgan shaxsning o'z vaqtida va to'liq ijtimoiylashuviga hissa qo'shishga, bolani ma'naviy, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashga qaratilgandir.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, tatbiq etilayotgan yangiliklar, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, xalqimizning yashash va mehnat qilish sharoitining yaxshilanishi, umuman olganda, erishilgan moddiy va ma'naviy salohiyat erkinligi mamlakat mustaqilligining tuhfasi bo'lib, erkin mehnat qilish va yashash, mustaqil fikrlash, e'tiqod va so'z erkinligi, diniy bag'rikenglik, ijodiy faollik, umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf-odatlarning hurmat qilinishi va qadrlanishi, kuchli ijtimoiy himoya hamda bularning huquqiy asoslarining yaratilishi yoshlarni mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini ob'ektiv baholashga o'rgatish yo'nalishida o'ziga xos vazifalar yuklaydi.

Bular, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarida talabalarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, ko'proq erkin va innovatsion fikrlashga o'rgatish, ularning sub'ektivligini oshirish, mustaqil ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil oлган ma'lumotlarini o'rganish asosida ularning ilmiyligi, yangiligi va ishonchliligin tahlil qilish, eng yangi va ishonchli axborotlar bilan ta'minlash, talabalarning faoliyatini muvofiqlashtirishda axborotlar almashinuviga alohida e'tibor qaratish va raqamli texnokogiyalarda samarali foydalanish zaruriyatini belgilaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish yo'nalishlarida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun zaruriy va yetarli shart-sharoitlarni yaratib berilishi oliy o'quv yurtlari rahbarlari va professor-o'qituvchilariga ham o'ziga xos mas'uliyat yuklaydi.

Talabalarni Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga AK va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish muhim o'rн tutadi. Talabalarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish – bu, birinchi navbatda, faoliyatga ijodiy munosabatni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Ijodkorlik mehnatga ijodiy munosabat jarayoni bilan integrativ

yo‘naltirilgan bo‘lib, talabalarni shaxsiy va kasbiy sifatlarni tarkib toptiradi, bunda qat’iyatlilik, kreativlik, kognitivlik, tashabbuskorlik, mustaqillik kabi fazilatlar tarkib topib boradi. Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Bizning asosiy maqsadimiz – yoshlarning sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishiga erishish, ularning o‘z qobiliyati va iste’dodini ro‘yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat”, – degan fikrlari o‘rinlidir.

Shuningdek, talabalarni ijodkorlik foliyatini rivojlantirish vositalarini izlash muammosi ta’lim muassasi o‘quvchilarining ijodkorligini rivojlantirish bilan bevosita bog’liq bo‘lib, bu jamiyatning rivojlanish sur’atlarining tezlashishi bilan belgilanadi. Axborotlashuv asrida talabalarni ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda innovatsion imkoniyatlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo‘lib bunda asosiy vazifa o‘qituvchilar zimmasiga tushmoqda. Bunday muhim vazifani zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini mukammal egallagan, o‘z ustida doimiy ishlaydigan, bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtiruvchi, ishiga kreativ yondashuvchi o‘qituvchigina hal eta oladi.

Ta’lim va tarbiya jarayonlari o‘z-o‘zidan talabani rivojlantirmasdan turib ijodiy faoliyatni tarkib toptirishi qiyin kechadi. Talabalarning ijodkorlik faoliyatiga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarining rivojlanishi uchun uning faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va kreativ yondashish zrurligini belgilaydi. O‘quv materialini sust idrok etish jarayonida talabalarda ijodiy rivojlanish u qadar sodir bo‘lmaydi. Masalan: ijodiy faoliyatni tarkib toptirish uchun yetarli bilim, ko‘nikma va malakanı egallasagina unga samarali yondasha oladi, kerakli ma’lumotlarni o‘zi eslab qolmasa, ulardan ijodiy faoliyatda yetarli foydalana olmaydi, unda hech qanday ijodiy yondashish ko‘nikmasi shakllanmay qolishi tabiiy hol bo‘lib qoladi. Bu o‘rinda o‘quvchi va talabaning o‘z harakatlari, intilishlari, o‘z ustida muntazam ishlari natijasida ular kelajakda ijodkorlik faoliyatini shakllanish va rivojlantirish imkonini qo‘lga kirta oladi.

Zamonaviy talablar asosida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuvini ta’minalashda AKT va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunki, raqamli texnologiyalar foydalanuvchi manfaatlari uchun axborotlarni yig‘ish, tahrirlash, saqlash, tarqatish va foydalanish maqsadlarida birlashtirilgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiytexnik vositalar to‘plamidan iboratligi bilan ahamiyatli sanaladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalarni ta’lim vositalarining bir qator ko‘rsatkichlari bo‘yicha turlarga ajratish maqsadga muvofiq sanaladi. Chunonchi:

1. Pedagogik masalalari bo‘yicha:

- a) tayanch tayyorgarlikni ta’minlovchi vositalar: elektron darsliklar, ta’lim tizimlari, bilimlarini nazorat qilish tizimlari;
- b) amaliy tayyorgarlik vositalari: masalalar to‘plamlari, raqamli texnologiyalar, virtual konstrukturlar;

d) yordamchi vositalar: adabiyotlar, rivojlantiruvchi kompyuter o‘yinlari, multimediali video darslar;

2. Ta’lim jarayonini tashkil qilish bo‘yicha:

- a) axborot-ta’lim resurslari;
- b) interfaol;

Yuqorida ilgari surilgan fikrlarni inkor etmagan holda aytadigan bo‘lsak, raqamli texnologiyalarni qo‘llash talabalarning qiziqishlarini oshirishga va ijodiy faoliyatga motivatsion yondashuvni shakllantirishga yordam beradi, chunki talabalarning individual ta’lim imkoniyatlarini va ehtiyojlarini maksimal hisobga olish, o‘quv mashg‘ulotlari mazmuni, shakllarini tanlash keng imkoniyatlari, ularning ijodiy imkoniyatlarini ochib berish, zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishlariga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan raqamli o‘quv resurslarini, individual testlar masofaviy darslarni tashkil etishda foydalanilishi mumkin.

Raqamli ta’lim nafaqat raqamli ta’lim vositalari orqali o‘quv jarayonini davom ettirish, balki ta’lim sifatini va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishga qaratilgan faoliyat turi sanaladi. Demak, o‘quv jarayoniga raqamli ta’limni joriy qilinishi axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari tarbiya fani o‘qituvchisining innovatsion faoliyatini asosiy mexanizmlaridan biri sanaladi. Raqamli ta’lim pedagogga ma’lumotni boshqarish, undan foydalanish, shuningdek, inson faoliyatining barcha sohalarida bilimlarni tarqatish imkoniyatini beradi. Shunga ko‘ra, zamonaviy axborot jamiyatida pedagogning kompyuter, aloqa texnologiyalaridan, shu jumladan radio, televizor, zamonaviy mobil qurilmalar, gadjetlar, interaktiv uskunalar, podkasting, striming va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, veb-xizmatlar, mobil ilovalar va boshqalardan foydalangan holda keng ko‘lamli kasbiy, kognitiv, hordiq chiqarish, maishiy va boshqa vazifalarni hal qilish qobiliyati alohida o‘rin tutadi.

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha pedagogning kasbiy mahorati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- a) ta’lim tizimining global axborot jarayonlariga jalg qilinishi to‘g‘risida xabardorlik;
- b) deyarli cheksiz miqdordagi ma’lumotlarga va ushbu ma’lumotlarni tahliliy qayta ishlashga samarali kirish usullarini o‘zlashtirishga tayyorlik;
- c) innovatsion pedagogik natijalarni olish uchun zamonaviy axborot muhitida pedagogik g‘oyalarni shakllantirishga imkon beradigan shaxsiy ijodiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishga intilish, shuningdek, o‘ziga xos axborot muhitini yaratish;
- d) ilmiy va ijtimoiy tajribani birlgilikda rivojlantirishga, axborotning o‘zaro ta’sirining barcha subyektlari bilan birlgilikda aks ettirish va o‘z-o‘zini aks ettirishga tayyorligi

- e) ma'lumotlarni olish, tanlash, saqlash, takrorlash, taqdim etish, uzatish va integratsiya qilish kasbiy madaniyatni o'zlashtirish
- f) doimiy o'zgarib turadigan axborot jamiyatida, uzlusiz ta'lim sharoitida kasbiy o'sishning muhim yo'nalishi sifatida zamonaviy interfaol telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlik;
- g) axborot va ta'lim muhitini modellashtirish va loyihalashtirish va o'z kasbiy faoliyati natijalarini bashorat qilish qobiliyati.

Bugungi sharoitda global axborot va raqamli ta'lim makoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi ishlab chiqilmoqda. Mazkur jarayon zamonaviy texnik imkoniyatlarga mos keladigan va talabaning axborot jamiyatiga barkamol kirishiga hissa qo'shishi kerak bo'lgan ta'lim texnologiyalari tarkibiga tuzatishlar kiritish bilan bog'liq pedagogik nazariya hamda o'quv jarayonidagi sezilarli o'zgarishlar bilan birga keladi.

ADABIYOTLAR:

116. Кадирова, З. З. (2019). Психолого-педагогические проблемы изучения понимания учебно-воспитательных ситуаций учителем. Профессионализм педагога: компетентностный подход в образовании, 1(1), 6-11.
117. Kadirova, Z. Z. (2022). Alisher Navoiyning nasriy asarlarida perifrazalar. *Monografiya*, 1(1), 120.
118. Leylo, M., & Pavlovna, I. Y. (2023). Motive of children's suffering in the story z. prilepin "white square". *Scientific approach to the modern education system*, 1(10), 77-80.
119. Yuliya, I. (2023). The place of Shamshad Abdullayev and the "Fergana school of poetry" in modern literature. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-523.
120. Isayeva, Y. (2023). Relevance of studying national character. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 4(05), 95-100.
121. Astanova, G. A. Analysis of the image of wise and entrepreneurial women in Shahrizoda stories. *theoretical & applied science* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 533-537.
122. Aminovna, A. G. (2020). Interpretation of the image of the hero woman in the stories of Shahrizoda. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(6), 14365-14373.
123. Dusnazarova, M. I. (2022). Legal Regulation of Marriage-Wedding Traditions in Modern Uzbekistan. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(11), 23-29.
124. Elamanovna, D. M. (2021, March). Works and environmental education. *Archive of Conferences*, 17(1), 79-80.

125. Akhmedov, B. A. (2024). Dialogue Leading to a Problematic Situation and Its Place In School Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 28, 17-21.
126. Akhmedov, B. A. (2023). Socratic methods in education based on conflict dialogue. *Sciential Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(3), 1-7.
127. Akhmedov, B. A. (2024). Reorganization of teaching manual in higher education in Tashkent region. *Uzbek Scholar Journal*, 24, 13-25.
128. Akhmedov, B. A. (2024). Methods Of Improving the Quality of Dissertation Works in The Exact Sciences of The Tashkent Region. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(1), 39-57.
129. Akhmedov, B. A. (2023). Socratic dialogue as a response to the challenge of the Epoch. *Sciential Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(1), 1-9.
130. Akhmedov, B. A. (2023). Physics is a Science Forming Knowledge About Health. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, 1(3), 350-355.
131. Тангиров, И. X., & Ахмедов, Б. А. (2021). Перспективы развития правового государства. *Политика и общество*, 7(18), 178-186.
132. Axmedov, B. A., & Muxamedov, G. I. (2021). Klaster Mobile DGU 09834.
133. Akhmedov, B. A. (2023). Use of information technology in medicine, history, biology, literature, physical education. *Uzbek Scholar Journal*, 22, 17-29.
134. Inomjonov, N., Axmedov, B., & Xalmetova, M. (2023). Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikativ kompetentlikni oshirish usullari. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 580-586.
135. Akhmedov, B. A., & Khimmataliyev, D. O. (2023). The emergence-theoretical aspects of dialogue in education. *Sciential Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(2), 1-7.
136. Inomjonov, N., Axmedov, B., & Xalmetova, M. (2023). Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikativ kompetentlikni oshirish usullari. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 580-586.
137. Akhmedov, B. A. (2023). Prospects and trends of digital twins in education. *Uzbek Scholar Journal*, 23, 6-15.
138. Akhmedov, B. A., Makhmudova, D. M., & Akhmedjonov, D. G. (2024). Using the Socrates method in improving the quality of education in pedagogical universities. *Sciential Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 2(1), 16-24.